“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Haqoratga oid materiallar sud-lingvistik ekspertizasining ilmiy-nazariy, tashkiliy va normativ-huquqiy asoslari

Abdurashid To‘ychiyev,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi
Toshkent viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari
e-mail: rashidaka8771@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada haqoratga oid materiallar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertizasining ilmiy-nazariy, tashkiliy va normativ-huquqiy asoslari tadqiq etilgan. Sud-lingvistik ekspertizasini tayinlash va o‘tkazishning huquqiy asoslari, haqorat bilan bog‘liq nutqiy materiallarni lingvistik tahlil qilishning ilmiy-nazariy mezonlari hamda lingvist-ekspert faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, “sha’n”, “qadr-qimmat”, “obro‘”, “haqorat”, “kamsitish” va “tahqirlash” kabi asosiy tushunchalarning lingvistik va huquqiy talqinlari tahlil qilinib, “beodob shakl” tushunchasining sud-lingvistik ekspertizadagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Maqolada haqoratga oid materiallarni ekspertizadan o‘tkazishda leksik-semantik, pragmatik va kommunikativ yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan hamda sud-tergov amaliyotida lingvistik ekspertiza xulosasining daliliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Калит сўзлар. sud-lingvistik ekspertizasi, haqorat, kamsitish, tahqirlash, sha’n, qadr-qimmat, obro‘, beodob shakl, lingvist-ekspert, leksik-semantik tahlil, kommunikativ tahlil, nutqiy huquqbuzarlik, normativ-huquqiy asoslar.

Аннотация. В данной статье исследуются научно-теоретические, организационные и нормативно-правовые основы судебно-лингвистической экспертизы материалов, содержащих признаки оскорбления. Рассматриваются правовые основания назначения и проведения судебно-лингвистической экспертизы, теоретические критерии лингвистического анализа речевых материалов, связанных с оскорблением, а также особенности деятельности эксперта-лингвиста. Кроме того, анализируются лингвистические и правовые интерпретации таких базовых понятий, как «честь», «достоинство», «репутация», «оскорбление», «унижение» и «надругательство», раскрываются место и значение понятия «неприличная форма» в судебно-лингвистической экспертизе. В статье обосновывается значимость лексико-семантического, прагматического и коммуникативного подходов при проведении экспертизы материалов, содержащих признаки оскорбления, а также раскрывается доказательственное значение заключения судебно-лингвистической экспертизы в судебно-следственной практике.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ключевые слова. судебно-лингвистическая экспертиза, оскорбление, унижение, надругательство, честь, достоинство, репутация, неприличная форма, эксперт-лингвист, лексико-семантический анализ, коммуникативный анализ, речевое правонарушение, нормативно-правовые основы.

Annotation. This article examines the scientific-theoretical, organizational, and legal foundations of forensic linguistic examination of materials containing insulting content. The study analyzes the legal grounds for the appointment and conduct of forensic linguistic expertise, the theoretical criteria for the linguistic analysis of speech materials related to insult, and the specific features of the professional activities of forensic linguists. In addition, the article explores the linguistic and legal interpretations of such fundamental concepts as “honor”, “dignity”, “reputation”, “insult”, “humiliation”, and “degradation”, and reveals the role and significance of the concept of “indecent form” within forensic linguistic examination. The study substantiates the importance of lexical-semantic, pragmatic, and communicative approaches in the examination of insulting materials and highlights the evidentiary value of forensic linguistic conclusions in judicial and investigative practice.

Keywords. forensic linguistic examination, insult, humiliation, degradation, honor, dignity, reputation, indecent form, forensic linguist, lexical-semantic analysis, communicative analysis, speech offense, legal framework.

So‘nggi yillarda zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, xususan, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida shaxsning sha’ni, qadr-qimmati va obro‘siga putur yetkazishga qaratilgan nutqiy huquqbuzarliklar soni ortib bormoqda. Mazkur holat sud-tergov amaliyotida haqoratga oid materiallarni lingvistik jihatdan tadqiq etish zaruratini kuchaytirib, sud-lingvistik ekspertizaning ilmiy-nazariy, tashkiliy hamda normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasining dolzarbligini oshib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi [1] Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi PF–6256-son Farmoni [2] hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori bilan tasdiqlangan “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida namunaviy nizom” [3] asosida tartibga solinadi.

Haqoratga oid materiallar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertizasini tayinlashning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [4] hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi [5]da belgilangan normalar bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 41-moddasi [6]ga muvofiq, “haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

bo‘ladi.

Agar ushbu huquqbuzarlik bir yil ichida takroran sodir etilsa, huquqbuzarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilanadi”.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 140-moddasi [7]ga muvofiq, haqorat qilish, ya’ni shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini beodob shaklda qasddan tahqirlash, agar bunday harakatlar uchun ilgari ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. Mazkur norma bo‘yicha aybdor shaxsga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima, ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari jazosi qo‘llanilishi mumkin.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 140-moddasi ikkinchi qismi [8]ga muvofiq, haqorat qilish nashr etish yoki boshqa usulda ko‘paytirilgan shaklda, shu jumladan ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida joylashtirish orqali sodir etilgan taqdirda, aybdor shaxsga nisbatan yanada og‘irroq jinoiy javobgarlik chorasi qo‘llaniladi. Mazkur norma bo‘yicha bunday qilmish bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima, ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Ushbu normaning mazmunidan anglashiladiki, haqoratning ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari va internet orqali tarqalishi uning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 140-moddasi uchinchi qismi [9]da qayd etilishicha,

“Haqorat qilish:

a) jabrlanuvchini o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan bog‘liq holda;

b) xavfli retsidivist tomonidan yoki tuhmat qilganligi uchun ilgari sudlangan shaxs tomonidan qilingan bo‘lsa, – bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi”.

Mazkur huquqiy normalar doirasida sud-lingvistik ekspertiza tayinlashning protsessual asosi sodir etilgan harakatning huquqiy tavsifini belgilash, qilmishning motivlarini, shuningdek, ish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Ushbu holatlar dastlab tergov organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlanadi, keyinchalik esa sud tomonidan ish yuzasidan to‘plangan materiallar majmui asosida har tomonlama baholanadi.

Sud-lingvistik ekspertiza doirasida nutqiy birliklarning kontekstual qo‘llanilishi, kommunikativ vaziyat, muallifning kommunikativ niyati hamda adresatga qaratilgan baholovchi munosabat alohida tadqiq qilinadi. Mazkur omillar haqorat tarkibining mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashda muhim

lingvistik mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Haqorat qilish shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitishga, tahqirlashga yoki obro‘sizlantirishga qaratilgan salbiy nutqiy ta’sir shakllaridan biri hisoblanadi. Shu sababli haqorat bilan bog‘liq nutqiy materiallarni baholash jarayonida verbal va noverbal kommunikatsiya vositalarining mazmuni, ifoda shakli hamda kommunikativ maqsadi kompleks tarzda tahlil qilinishi lozim.

Haqoratga oid nutqiy materiallarning sud-lingvistik ekspertizasida lingvist-ekspert yoki mutaxassis zimmasiga yuklatiladigan vazifalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan huquqiy normalar bilan uzviy bog‘liq. Mazkur normalarning lingvistik-huquqiy tahlili jarayonida *“sha’n”, “qadr-qimmat”, “obro‘”, “kamsitish”, “haqorat”, “haqoratlash”* va *“tahqirlash”* kabi asosiy tushunchalarning mazmunini aniq mezonlar asosida sharhlash zarurati yuzaga keladi. Shu asosda tuzilgan ekspert xulosasi haqoratga oid ishlar bo‘yicha sud va tergov amaliyotida ish materiallaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, haqoratga oid materiallarning sud-lingvistik ekspertizasini samarali tashkil etish va uning natijalarini huquqiy jihatdan to‘g‘ri baholash faqat tashkiliy-huquqiy asoslar bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayonda lingvist-ekspert tadqiqotining ilmiy-nazariy manbalari, xususan, ish materiallariga oid asosiy lingvistik tushunchalarning leksik-semantik mazmunini aniqlash, o‘zaro mazmuniy solishtirish hamda ular o‘rtasidagi leksik-semantik munosabatlarni ilmiy jihatdan asoslash ham muhim. Bu esa haqoratga oid materiallar sud-lingvistik ekspertizasining ilmiy-nazariy manbalarini alohida ko‘rib chiqish zaruratining dolzarbligini belgilaydi.

Lingvistik ekspertiza maxsus tilshunoslik bilimlari asosida nutqiy materiallarni tadqiq etish, ularning semantik, pragmatik va kommunikativ xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan ekspert tadqiqoti hisoblanadi.

Sh. Ko‘chimov sud-lingvistik ekspertizasi haqida quyidagi fikrni bildiradi: “Tergov-sudlov ishlari jarayonida huquqiy (og‘zaki yoki yozma) matnning lingvistik xususiyatlarini aniqlash, matnda yashiringan tub ma’noni ochib berish va uning to‘g‘ri aks etganligini belgilash, mualliflik huquqi, ko‘chirmachilik va matn muallifini identifikatsiya qilish, sudlov obyektida davlatga qarshi, diniy ekstremizm yoki terrorizmga chorlovchi fikrlarning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash, bahsli va munozarali matnlarda inson sha’ni va qadr-qimmatini, ishchanlik obro‘siga salbiy ta’sir qiluvchi jihatlarni aniqlash kabi maqsadlarda o‘tkaziladigan ekspertiza sud-lingvistik ekspertiza deb yuritiladi” [10].

Biroq amaliyotda bahsli va munozarali matnlarda inson sha’ni, qadr-qimmati hamda ishchanlik obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi jihatlarni aniqlash bilan bog‘liq ekspert tadqiqotlari, asosan, sud-lingvistik ekspertiza doirasida amalga oshiriladi. Mualliflik huquqi, ko‘chirmachilik va matn muallifini identifikatsiya qilish bilan bog‘liq masalalar esa ko‘proq sud-filologik ekspertiza

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

doirasida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, matnda diniy ekstremizm yoki terrorizmga chorlovchi fikrlarning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash ayrim hollarda sud-siyosatshunoslik ekspertizasi doirasida baholanadi. Mazkur maqolada esa shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi, tahqirlovchi hamda haqorat mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarni aniqlashga qaratilgan sud-lingvistik ekspertizaning ilmy-nazariy asoslarini yoritishga e’tibor qaratildi.

Haqorat [11] – kishining or-nomusi va shaxsiyatini kamsituvchi, uni tahqirlovchi mazmunni ifodalovchi nutqiy birlik, muomala yoki xatti-harakatdir. Haqorat qilmoq, ya’ni haqoratlamoq, kimsaning sha’niga tegadigan so‘z yoki iboralarni qo‘llash, shuningdek, haqorat mazmunini ifodalovchi xatti-harakatlarni sodir etishni anglatadi. Shu bois haqorat boshqa shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitishga qaratilgan salbiy baholovchi nutqiy tajovuz sifatida baholanadi [12].

Haqorat tushunchasi amaldagi kodekslar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda batafsil sharhlanmagan. Shu bois huquqshunoslikda u, odatda, “nomaqbul shakl”da ifodalangan kamsituvchi munosabat sifatida talqin qilinadi. Haqorat axloq nuqtayi nazaridan sha’n va qadr-qimmatni kamsitishning eng murosasiz, chidab bo‘lmas shakllaridan biri hisoblanadi [13]. K.I. Brinevning ta’kidlashicha, “yuridik jihatdan haqorat – shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish bo‘lib, u “nomaqbul shakl”da ifodalanadi” [14]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, “nomaqbul shakl”, boshqacha aytganda, “beodob shakl” tushunchasining sud-lingvistik ekspertiza doirasidagi mazmunini ilmiy jihatdan aniqlashtirish muhim nazariy masalalardan biri sanaladi.

Biroq sud amaliyotida mazkur tushunchaning qo‘llanishi har doim ham bir xil aniqlikda namoyon bo‘lavermaydi. Huquqiy nuqtayi nazardan qaralganda, ayrim ishlar bo‘yicha sud amaliyotida kamsituvchi va haqorat mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning bir xil kategoriya doirasida baholanayotgani kuzatiladi. Natijada “haqorat” tushunchasi, ko‘pincha “kamsitish” tushunchasi orqali talqin qilinadi. Jumladan, amaliyotda shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish unga nisbatan umumiy salbiy baho berish, ya’ni uni obro‘sizlantirish, jamiyat oldidagi hamda o‘ziga nisbatan mavqeyini pasaytirish sifatida izohlanadi. Bunday yondashuv zamirida sha’n va qadr-qimmatning axloqiy kategoriyalar sifatidagi mohiyati yotadi. Ya’ni mazkur tushunchalar shaxsning atrofdagilar tomonidan baholanishi hamda uning o‘z-o‘zini baholashi bilan bevosita bog‘liqdir. Aslida esa “sha’n” va “qadr-qimmat” tushunchalari shaxsning ijobiy xususiyatlarini, uning jamiyat tomonidan hamda o‘z ongida ijobiy baholanishini, shuningdek, shaxsning o‘ziga nisbatan yuksak bahosini ifodalaydi. Shu bois ushbu tushunchalarga qaratilgan salbiy nutqiy ta’sirlar lingvistik va huquqiy jihatdan aniq chegaralangan mezonlar asosida tahlil qilinishi lozim.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Sha’n [15] – insonga, ya’ni shaxsga xos bo‘lgan qadr-e’tibor; sharaf, shuhrat va obro‘ kabi ma’nolarini ifodalovchi tushunchadir. Mazkur tushuncha shaxsning jamiyat tomonidan ijobiy baholanishini, shuningdek, axloqiy, ijtimoiy va shaxsiy sifatlarining ijtimoiy ongda aks etishini anglatadi. Sha’n shaxsning jamiyatdagi mavqeyi va unga nisbatan shakllangan ijobiy munosabat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning obro‘-e’tibori va ijtimoiy nufuzini belgilovchi muhim axloqiy kategoriya hisoblanadi.

Qadr [16] – shaxsning jamiyatda va kishilar o‘rtasida tutgan o‘rni, unga nisbatan shakllangan hurmat va e’tibor, shuningdek, uning hayotdagi ahamiyati va ijtimoiy salmog‘ini ifodalovchi tushunchadir. Ushbu kategoriya shaxsning ijtimoiy mavqeyi hamda jamiyat tomonidan beriladigan baho bilan bevosita bog‘liqdir.

Qadr-qimmat esa shaxsning o‘ziga nisbatan ongida shakllangan ijobiy bahosi orqali uning shaxsiy va axloqiy sifatlarini aks ettiradi. Mazkur tushuncha shaxsning o‘zini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida anglashini, o‘z shaxsiga bo‘lgan hurmati va o‘z-o‘zini qadrlash darajasini ifodalaydi.

Obro‘ [17] – kishining egallagan mavqeyi, faoliyati hamda ijobiy xislatlari tufayli jamoatchilik orasida topgan e’tibori, hurmati va nufuzini ifodalovchi tushunchadir. Ushbu kategoriya shaxsning ijtimoiy mavqeyini, unga nisbatan shakllangan barqaror ijobiy munosabatni aks ettiradi hamda sha’n va qadr-qimmat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan muhim ijtimoiy-axloqiy tushuncha hisoblanadi.

Kamsitmoq [18] – shaxsning qadr-qimmatini pasaytirish, uni past, arzimas yoki aybli qilib ko‘rsatish, yerga urish ma’nolarini ifodalaydi. Mazkur harakat shaxsning sha’ni, qadr-qimmati va obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi baholovchi munosabatni aks ettiradi hamda sud-lingvistik ekspertiza amaliyotida salbiy nutqiy ta’sir shakllaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Tahqir (tahqirlamoq, tahqirlash) [19]– xo‘rlash, kamsitish, haqoratlash mazmunini ifoda etuvchi tushunchadir. U shaxsning sha’ni, qadr-qimmati va obro‘siga nisbatan salbiy baho berishni anglatadi. Tahqirlash shaxsni past, arzimas yoki ijtimoiy jihatdan qadrsiz holatda tasvirlash orqali uning ijtimoiy va axloqiy mavqeyini pasaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

Demak, “sha’n”, “qadr-qimmat” va “obro‘” tushunchalari shaxsning ijobiy ijtimoiy va axloqiy bahosini ifodalovchi kategoriyalar bo‘lsa, “kamsitish”, “tahqirlash” va “haqorat” mazkur kategoriyalarga qaratilgan salbiy nutqiy ta’sir shakllari sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni sud-lingvistik ekspertiza jarayonida o‘zaro farqlangan holda tahlil qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu ta’riflardan kelib chiqib, “nomaqbul shakl” tushunchasi muayyan axloqiy me’yorlarning buzilishi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Mazkur holat yetarli darajada ifodalangan hollarda u sud-lingvistik ekspertiza jarayonida muhim mezon sifatida e’tiborga olinadi. Shuningdek, “nomaqbul shakl”ning namoyon bo‘lish ko‘lami, jabrlanuvchining jamiyatdagi ijtimoiy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

mavqeyi, egallab turgan lavozimi hamda nutqiy vaziyat xususiyatlari lingvist-ekspert tomonidan kompleks tarzda baholanadi. Bunda ifoda shaklining nojo‘yaligi, avvalo, jamiyatda qaror topgan axloqiy me’yorlar asosida belgilanadi.

Shu tariqa, haqoratga oid materiallarni sud-lingvistik ekspertizadan o‘tkazishda lingvist-ekspert yoki mutaxassisning asosiy vazifasi haqorat va tahqirlash kabi salbiy nutqiy hodisalarni, shuningdek, ijobiy va salbiy tushunchalar o‘rtasidagi munosabatni aniqlash hamda ularni ilmiy nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilishdan iborat bo‘ladi.

Ma’lumki, haqoratga oid ishlar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertiza shaxsga nisbatan kamsituvchi bahoni ifodalovchi til vositalari va ifoda usullarini tahlil qilishga qaratiladi. Lingvist-ekspert jinoyat tarkibini aniqlamaydi va huquqiy xulosa bermaydi. Biroq u sud amaliyotida dalil sifatida baholanayotgan nutqiy materiallarning leksik-semantik mazmunini, pragmatik hamda kommunikativ xususiyatlarini tahlil qilib, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini nomunosib shaklda kamsitish alomatlarining mavjud yoki mavjud emasligi yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa taqdim etadi.

Bunda lingvist-ekspert yoki mutaxassis tilshunoslikka oid ilmiy-tadqiqot ishlari, sohaviy qo‘llanmalar, umumiy hamda terminologik lug‘atlarga tayanadi, zarur hollarda ularga havola beradi va tanlangan manbalarning ishonchliligini e’tiborga oladi. Shu nuqtayi nazardan, sud ishiga oid bahsli nutqiy materiallarda haqorat mazmunining mavjud yoki mavjud emasligiga aniqlik kiritish lingvist-ekspert yoki tilshunos mutaxassis ishtirokida amalga oshirilishi zarur.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va vakolatli shaxslar ekspert tomonidan aniqlangan til xususiyatlari hamda ifoda shakllarini ish bo‘yicha boshqa dalillar bilan birgalikda baholagan holda, qilmishning huquqiy tavsifi va kvalifikatsion belgilarini aniqlaydi, unga huquqiy baho beradi hamda sodir etilgan harakatni tegishli tartibda tasniflaydi. Sud va tergov amaliyotida nutqiy materiallarni malakali lingvistik tahlilsiz baholash holatlari huquq normalarini qo‘llash jarayonidagi jiddiy kamchiliklardan biri bo‘lib, ish bo‘yicha huquqiy baholashning aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ekspert xulosasini ish bo‘yicha boshqa dalillar bilan uzviy bog‘liq holda baholash alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, haqoratga oid materiallar sud-lingvistik ekspertizasining ilmiy-nazariy asoslarini yoritish ushbu turdagi ekspertiza tadqiqotlarida qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar, mezonlar va yondashuvlarning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish imkonini beradi. Mazkur asoslar keyingi bosqichda haqoratga oid materiallar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertiza tadqiqotining predmeti, obyekti hamda ekspert oldida turgan vazifalarni belgilash uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ–249-son Qonuni;

https://lex.uz/mact/-1633102.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6256-son Farmoni; https://lex.uz/ru/docs/-5491507.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 73-son qarori; https://lex.uz/docs/-6388692.

4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994-yil 22-sentabr); https://lex.uz/docs/-111453.

5. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (1994-yil 22-sentabr); https://lex.uz/docs/-97664.

6. Izoh: 41-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-586-son Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son.

7. Izoh: 140-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-586-son Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son.

8. Izoh: 140-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-658-son Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2020-y., 03/20/658/1670-son; 140-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-586-son Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son.

9. Izoh: 140-modda uchinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-658-son Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2020-y., 03/20/658/1670-son.

10. Ko‘chimov Sh.N. Sud-lingvistik ekspertizasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 12 b.; O‘rozov J. O‘zbek tili lingvokriminalistikasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 9.

11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 6 jildli, 2-jild // Tahrir hay’ati: E.Begimov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev, N.Mahmudov, T.Mirzayev, F.Musayeva, Y.Odilov, D.Xudoyberganova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 324-bet; https://izoh.uz/word/haqorat.

12. O‘rozov J. O‘zbek tili lingvokriminalistikasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 130 b.

13. Агилдин В.В. Уголовно-правовая характеристика оскорбления [Электронный ресурс] / В.В. Агилдин. – 2010. –http://www.juristlib.ru/book_6442.html (05.05.2014); Агильдин В.В. Уголовное право. Особенная часть (Учебное пособие) // «Преступления против чести и достоинства личности». – Москва: Юстиция: Инфра-М, 2016 (переизд.2018).

14. Бринев К.И. Судебная лингвистическая экспертиза: методология и методика. – М., Флинта: «Наука», 2014 (пер.2016).

15. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 6 jildli, 6-jild // Tahrir hay’ati: E.Begimov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev, N.Mahmudov, T.Mirzayev, F.Musayeva, Y.Odilov, D.Xudoyberganova. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 616-bet; https://izoh.uz/word/sha'n.

16. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 6 jildli, 4-jild // Tahrir hay’ati: E.Begimov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev, N.Mahmudov, T.Mirzayev, F.Musayeva, Y.Odilov, D.Xudoyberganova. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 18-bet; https://izoh.uz/word/qadr.

17. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 6 jildli, 3-jild // Tahrir hay’ati: E.Begimov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev, N.Mahmudov, T.Mirzayev, F.Musayeva, Y.Odilov, D.Xudoyberganova. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 430-bet; https://izoh.uz/word/obro.

18. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 6 jildli, 2-jild // Tahrir hay’ati: E.Begimov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev, N.Mahmudov, T.Mirzayev, F.Musayeva, Y.Odilov, D.Xudoyberganova. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 741-bet; https://izoh.uz/word/kamsit.

19. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 6 jildli, 4-jild // Tahrir hay’ati: E.Begimov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev, N.Mahmudov, T.Mirzayev, F.Musayeva, Y.Odilov, D.Xudoyberganova. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 29-bet; https://izoh.uz/word/tahqir.

O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ–249-son Qonuni; https://lex.uz/mact/-1633102.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6256-son Farmoni; https://lex.uz/ru/docs/-5491507.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 73-son qarori; https://lex.uz/docs/-6388692.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994-yil 22-sentabr); https://lex.uz/docs/-111453.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (1994-yil 22-sentabr); https://lex.uz/docs/-97664.

Najmiddinova N. O‘zbek tilidagi “shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli ifodalarning lingvistik ekspertizasi: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Qo‘qon, 2025. – 125 b.

Ko‘chimov Sh. Sud-lingvistik ekspertizasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 12 b.; O‘rozov J. O‘zbek tili lingvokriminalistikasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print,

2023. – B. 9.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati 6 jildli. // Tahrir hay’ati: E.Begimov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev, N.Mahmudov, T.Mirzayev, F.Musayeva, Y.Odilov, D.Xudoyberganova. – Toshkent, 2023.

O‘rozov J. O‘zbek tili lingvokriminalistikasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 130 b.

Агильдин В. Уголовное право. Особенная часть (Учебное пособие) // «Преступления против чести и достоинства личности». – Москва: Юстиция: Инфра-М, 2016 (переизд.2018).

Бринев К. Судебная лингвистическая экспертиза: методология и методика. – М., Флинта: «Наука», 2014 (пер.2016).